Davlat xaridlaridan foydalanishda raqamli iqtisodiyotning tutgan o’rni

Nosirova Zulfiya Xudaybergan qizi
Muhammad al-Xorazimiy nomidagi TATU assistenti
z.nosirova@tuit.uz

Annatatsiya: Ushbu maqolada davlat xaridlaridan samarali foydalanishda raqamli iqtisodiyotning tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar asosida davlat xaridlarini tashkil etish jarayonining shaffofligi, tezkorligi va samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Maqola davomida davlat xaridlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaralari va istiqbollari haqida xulosalar berilgan.

Kalit so’zi: davlat xaridlari, raqamli iqtisodiyot, elektron savdo, raqamlashtirish, davlat boshqaruvi, axborot texnologiyalari, elektron platforma, raqobat muhiti, iqtisodiy samaradorlik.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida raqamli texnologiyalarning jadal sur’atlarda rivojlanishi nafaqat xususiy sektor, balki davlat boshqaruvi tizimining ham barcha sohalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va chuqurlashuvi moliyaviy boshqaruvda shaffoflik, hisobdorlik, samaradorlik va tezkorlik kabi tamoyillarning amalda ro‘yobga chiqishiga imkon bermoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda davlat xaridlarini modernizatsiya qilish, ularni raqamlashtirish va shaffofligini oshirish borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu soha zamonaviy axborot texnologiyalarining eng talabchan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uni boshqarish uchun normativ-huquqiy hujjatlarni doimiy ravishda takomillashtirib borish talab etiladi. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va globallashuv sharoitida davlat xaridlarining elektron shaklga o‘tishi ularni zamonaviy bosqichga olib chiqmoqda.

Davlat xaridlarini raqamlashtirish jarayoni nafaqat texnik xizmat ko‘rsatish (mebel, orgtexnika, kompyuter, audio-video uskunalar va boshqa texnika vositalariga), balki xizmat ko‘rsatish va tovarlarni yetkazib berishda ham elektron savdo mexanizmlari orqali oshkoralikni ta'minlaydi. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi davlat boshqaruvi tizimining barcha sohalariga, jumladan, davlat xaridlari (ya'ni, davlat tomonidan tovarlar, xizmatlar va ishlarni xarid qilish tizimi)ga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda davlat xaridlari faqatgina iqtisodiy resurslarni taqsimlash vositasi emas, balki davlatning raqamli transformatsiyasida strategik ahamiyat kasb etadigan muhim institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamli texnologiyalar davlat xaridlari jarayonlarining oshkoraligi, samaradorligi va hisobdorligini oshirish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, korrupsiyaviy holatlarni minimallashtirishda muhim ro‘l o‘ynamoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali tender jarayonlarini raqamlashtirish, tegishli qoidalarni takomillashtirish, elektron tenderlar uchun aniq yo‘riqnomalarni ishlab chiqish.

Shuningdek, davlat xaridlarini rejalashtirish jarayoni davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshiriladi va u xarid faoliyatining tizimlashtirilgan shaklga keltirilishi, byudjet hamda investitsiya jarayonlaridagi rejalashtirish bosqichlari bilan o‘zaro uzviy bog‘liqligini ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Ushbu diagrammada davlat xaridlarini amalga oshirishning asosiy bosqichlari ketma-ketlikda ifodalangan. Jarayon xarid ehtiyojini aniqlashdan boshlanadi, so‘ng rejalashtirish, e’lon qilish, xaridni o‘tkazish va yakuniy bosqichda ijrochilar bilan shartnoma tuzish orqali yakunlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi sohasida raqamlashtirish jarayonlari nafaqat davlat xaridlariga, balki butun institutlararo va idoralararo raqamli salohiyatning oshirilishiga qaratilgan. Ushbu jarayonlarning samarali amalga oshirilishi uchun mustahkam raqamli infratuzilma va boshqaruv tizimlari yaratish muhim ahamiyatga ega.

Davlat xaridlarining raqamli shaklga o‘tishi, ayni paytda, mahalliy tadbirkorlik subyektlari uchun ham katta imkoniyatlar yaratmoqda. Barcha ishtirokchilar uchun teng sharoitlar yaratilgani sababli kichik va o‘rta biznes subyektlari ham tender va savdolarda faol ishtirok etmoqda.

Davlat xaridlari tizimini raqamlashtirish va huquqiy asoslarini kuchaytirish orqali iqtisodiyotda ochiqlik, samaradorlik va raqobatni ta'minlashga erishilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ishlovchi davlat xaridlari platformalarining rivojlanishi davlat mablag‘laridan oqilona foydalanishni ta’minlaydi. Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi, soliq va statistika qo‘mitalarining ma’lumotlar bazalari bilan integratsiya esa davlat xaridlarining shaffofligini yanada kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar asosida davlat xaridlarini tashkil etish O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun juda katta ahamiyatga ega. Bu tizim orqali moliyaviy resurslar tejab qolinadi, shaffoflik ta’minlanadi, sog‘lom raqobat muhiti vujudga keladi va davlat xizmatlari sifati oshadi. Shu bois, raqamli xarid mexanizmlarini yanada takomillashtirish, ularni butun hududlarda ommalashtirish yordam beradi.

Foydalingan adabiyotlar ro ‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari. – Toshkent, 2020–2024.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Elektron davlat xaridlari tizimini takomillashtirish bo‘yicha me’yoriy hujjatlar. – Toshkent, 2022.
4. Tapscott D. *The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence.* – New York: McGraw-Hill, 1996.